

“Xalqaro shisha yili” doirasida “Shisha, keramika va bog‘lovchi materiallar ishlab chiqarishning innovatsion texnologiyalari” xalqaro konferensiyasi start oldi.

// 26.05.2022

<https://www.uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/xalqaro-shisha-yili>

Bugun 26-may kuni “Kimyo-barqaror rivojlanish uchun” xalqaro ilmiy-texnikaviy haftaligi doirasida Toshkent kimyo-texnologiya instituti, “O‘zkimyosanoat” aksiyadorlik jamiyati, “O‘zsanoatqurilishmateriallari” uyushmasi bilan hamkorlikda Birlashgan millatlar tashkiloti tomonidan e‘lon qilingan “Xalqaro shisha yili” doirasida “Shisha, keramika va bog‘lovchi materiallar ishlab chiqarishning innovatsion texnologiyalari” xalqaro konferensiyasi start oldi. Xalqaro ilmiy-texnik anjumandan ko‘zlangan maqsad silikat materiallari – shisha, keramika va bog‘lovchi materiallar ishlab chiqarishning zamonaviy innovatsion texnologiyalarini muhokama qilish, jahon hamjamiyatini O‘zbekiston shisha sanoati yutuqlari bilan yaqindan tanishtirishdan iborat.



"O'zkimyosanoat" AJ Matbuot xizmati